

Ne'matillo MUHAMMEDOV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
dotsenti, DSc

Saidumarxon BURGUTXONOV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
3-bosqich talabasi

QODIRIYA TARIQATIDAGI QOIDALAR

Yurtimizda islom dinining muhim ilmlaridan bo'lmish tasavvuf doirasida buyuk avliyolar tomonidan sof aqidaga asoslangan sunniylik tariqatlariga asos solingan. Bularga yassaviya, kubroviya, naqshbandiya va boshqalar kiradi. Shu bilan birga yurtimiz hududiga o'rta asrlarda chetdan bir necha tariqatlar ham kirib kelgan. Shunday tariqatlar qatoriga suhravardiya, qodiriya kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bular ham sunniylik tariqatlari sanalgan. Mana shu tariqatlardan biri – qodiriya ham boshqa tariqatlar qatori diyorimiz hududiga kirib kelib, o'z ergashuvchilariga ega bo'lib borgan.

Qodiriya tariqatiga XII asrda Iroqda Abdulqodir Jiyloniy (1077-1166) tomonidan asos solingan. U kishining to'liq ismi – Muhiyiddin Abdulqodir ibn Abi Solih Jangiy-do'st al-Hasaniy, al-Husayniy bo'lib, Iroqning mashhur sufiylaridan biri hisoblangan va Sharqda "G'avsus saqalayn", "Sultonul avliyo" nomlari bilan mashhur bo'lgan¹.


¹ S.Abdullaxon o'g'li, R. Mirzoqulov. Yo Janobi G'avs! -T.: "Navro'z", 2019. –B. 8.

Abdulqodir Jiyloniy dastlabki ta'limni otalaridan va Jiylondagi mashhur olimlardan oladi va keyinchalik ilm talabida o'z vaqtida dunyoning ilmu ma'rifat markazi, Bag'dod shahriga safar qiladi. Bu haqda hazrat Alisher Navoiy "Nasoyim al-muhabbat" asarida shunday keltiradi: "Alar debdurlarki: "Kichik erdim, yozig'a chiqib erdim va bir uyning quyrug'in tutib erdim, hirosat² uchun. Ul uy manga boqib dediki: "Buning uchun yaratilmading va bunga buyurilmading". Qo'rqtum va qayttim. Va kelib uy tomig'a chiqtim, hojilarni ko'rdumki, atrofda turib erdilar. Onam qoshig'a keldim va dedimki: "Meni Tangri ishiga qil va ijizat berki, Bag'dodga boray va ilm kasb qilay va solihlarni ziyorat qilay". Va onam dedilar: "Bor, ey farzand, Tangri uchun sendan kesildim va qiyomatgacha seni ko'rماغumdir"³.

Abdulqodir Bag'dodga kelgach, u yerda Abu G'olib Muhammad al-Boqiloniy, Abu Bakr ibn

² Hirosat – dehqonchilik.

³ Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat min shamoyimul futuvvat. -T.: "Movaraunnahr", 2017. –B. 414.



Susan, Ali Karxiy kabi ustozlardan hadis ilmini, Ali ibn Uqayl al-Xonbariy, Mahfuz Koluzaniy, Muhammad ibn Husayn ibn Muhammad Farro Hanbaliylardan Qur'on, usul, furu' ilmlarini, Yahyo ibn Ali Tabriziydan odob ilmini, Shayx Muhammad ibn Muslim Dabbosdan tasavvuf ilmini o'rganadi. Tasavvuf xirqasini esa, Qozi Abu Said Muhrimiydan kiyadi⁴.

Barcha ilmlarni mukammal egallagach, Bag'dodning Bob al-Azj nomli mahallasida hijriy 512-yili (milodiy 1127) madrasa bunyod etib, 33 yil mobaynida 13 xil ilmdan (jumladan, tafsir, hadis, mazhab, axloq, fiqh, usul va nahv ilmlari) talabalarga dars beradi va shu yillar davomida Abdulqodir Jiyloniy o'zining "Qodiriya" tariqatiga asos soladi. Bu tariqat asta-sekin shakllanib borib, keyinchalik turli o'lkalarga tarqaldi. Jumladan, bu tariqatning hozirgi kunda Sharqiy va Shimoliy Afrikada, Sudan, Iroq va Pokistonda mavqeyi kuchli.

Bu tariqatning Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi esa, Abdulqodir Jiyloniyga 11-avlod bo'lgan Sayyid Abdulazizxon al-Bag'dodiy nomi bilan bog'liq. U kishi Bag'dodda yashagan va keyinchalik bu tariqatni bizning hududimizga olib kelgan. U Movarounnahrqa yetib kelib, Xorazmning hozirgi Xonqa tumani hududida to'xtab xonaqoh quradi. U yerda uzoq qolmay yana yo'lida davom etib, Xorazmdan Buxoroga, so'ngra Farg'ona vodiysiga, Beshariq, xususan, Qo'qon shahrining Azizlik tepa, degan joyiga kelib o'rtnashadi.

Adabiyotshunos va tarixshunos olim Ikromiddin Ostonaqulovning yozishicha, Abdulaziz al-Bag'dodiy Qo'qon shahrida yashagan, tug'ilgan

⁴ Abdulqodir Jiyloniy. Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish. -T.: "Movarounnahr", 2005. -B. 9-10.

yillari aniqlanmagan bo'lib, Umarshayx Mirzo hukmronlik qilgan yillarda yashab o'tgan deb taxmin qilinadi. Jumladan, bu tariqat sulukida Mirmahmud Mirshamsiddin Qori Qo'qandiy (XIX asr 2-yarmi, XX asr boshlari) va Ziyoudin Haziniy (1867-1923)lar ijod qilishgan⁵.

Hozirgi kunda ham Qo'qon shahrining Toshloq mahallasida "Sayyid Abdulazizxon al-Bag'dodiy maqbarasi" mavjud bo'lib, u kishining avlodlari mana shu mahallada va Beshariq tumanining Uzun qishlog'ida yashab kelmoqda.

Qodiriya tariqatining tashkiliy asosi mustaqil mazgil (xonaqoh, rabot, zoviya) hisoblanib, uni boshqarish an'ana bo'yicha nasldan-naslga o'tadi⁶. Bu tariqatning "Qodiriya jahriya" sulukining shiori "Mashg'ullik ila forig'lik" bo'lib, dunyo ishi bilan shug'ullanib, dunyoparastlikdan holi bo'lish, moddiy boylikni ezgulik yo'lida sarflash g'oyasini bildiradi⁷.

Abdulqodir Jiyloniy o'zining tariqatiga tegishli ba'zi qoidalarini ishlab chiqqan va bularni tariqat asosi sifatida keltirgan. Bu qoidalar quyidagilar hisoblanadi:

1. "التزام بالكتاب والسنة" – Kitob(Qur'oni Karim) va sunnatni mahkam tutish. Shayx Abdulqodir Jiyloniy aytadi: "Bizning tariqatimiz Kitob va sunnat ustiga qurilgan. Kim ularga qarshi chiqsa bizdan emas".

2. "الجد والكد ولزوم الحد حتى تنفد" – Jiddiylik va qattiq mehnat qilish. "لزوم الحد", nafs poklangunicha hukmni mahkam tutish. "الجد" ning ma'nosi Allohga olib boruvchi tariqat sulukida qat'iy turish,

⁵ S.Abdullaxon o'g'li, R. Mirzoqulov. Yo Janobi G'avs! T.: "Navro'z", 2019. -B. 29-30.

⁶ Islom ensklopediyasi. T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi", 2004. -B. 293

⁷ S.Abdullaxon o'g'li, R. Mirzoqulov. Yo Janobi G'avs! -T.: "Navro'z", 2019.-B. 9.

“الكد” ning ma’nosi Alloh taolaga yetishish yo’lida ko’ngilchang va bee’tibor bo’lmay, juhndni, butun vujud, nafs va ruhni sarf qilish. “لزوم الحد” ning ma’nosi shariatni mahkam tutish, halolni halol deb, haromni harom deb bilish va Alloh taolo belgilab qo’yganlariga bo’ysunish va ulardan chiqib ketmaslik. “حتى تنقد” ning ma’nosi esa, nafsning gunoh-ma’siyatlardan, shahvatlardan va turli xil yomonliklardan holi bo’lishi va unda ulug’likda yuksak bo’lgan zot Alloh taolodan boshqa hech narsa qolmasligidir.

3. “الاجتماع والاستماع والاتباع حتى يحصل الانتفاع” - Manfaatga erishgunga qadar ulamolar majlislarida yig’ilish, ularni eshitish va ergashish. Buning ma’nosi solihlar, olimlar va murshidlar aytgan narsalari va risolat hidoyatida buyurgan ishlariga quloq solish, ergashish va ular bog’langan narsaga bog’lanish.

4. “الاعتقاد بشيخ الطريقة العفيدة الصحيحة” - To’g’ri aqidadagi tariqat shayxiga ergashish. Buning ma’nosi ularni sevisht, hurmatlash, o’zidan yuqori bilish, ularga bee’tibor bo’lmaslik, talab etilgan chegaradan ortiq darajada ulug’lamaslik. Muhabbat qo’yishda g’uluvga ketmaslik va uni begunoh deb e’tiqod qilmaslik. Chunki u ham xato qiluvchi inson va musibatlarga duch keladi. Lekin u Allohning inoyati ila himoyalangan. Shayx Abdulqodir Jiyloniy “Al-G’unya” kitobida aytadi: “Ey yigit, sen o’z shayxingni begunoh deb o’ylaysan. Albatta u ham xato qiluvchi va malomatlariga duchor bo’luvchi bir bashardir. Agar sen unda muxolif narsa ko’rib qolsang, uni shar’iy uzrdan izla. Agar topa olmasang, unda u uchun Allohdan mag’firat so’ra.”

5. “حب الشيخ” - Shayxga muhabbat qo’yish. Lekin Alloh va rasulining muhabbati undan oldin turadi. Shayx Abdulqodir Jiyloniy aytadi: “Shayx

qo’lida sayri-sulukda yurishdan asosiy maqsad, bu bizning Alloh va rasuliga bo’lgan muhabbatga dalilimizdir.”

6. “الدعوة الى الله وكثرة الذكر لله تعالى” - Alloh taolaga da’vat qilish va unga ko’p zikr aytish. Zikr bu qodiriya tariqatida Alloh taolaga sayrning zinapoyasi hisoblanadi. Muridning eng muhim vazifasi bu ko’p zikr, istig’for va Nabiyy (s.a.v.) ga salovot aytishda bardavom bo’lishdir. Bu orqali murid Alloh va rasulining muhabbati maqomotlariga ko’tarilib boradi. Zikr bu nafsni poklash, tarbiyalash va payg’ambar axloqi bilan xulqlash uchun eng muhim vositadir.

7. “محبة آل بيت” - Payg’ambar xonadoniga muhabbatli bo’lish. Shu bilan birga sahobai kiromlarga, xususan, ularning eng ulug’lari Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib (r.a.)larni ulug’lash va hurmat qilish.

8. “حب كل الأولياء والصالحين” - Barcha avliyo va solihlarga muhabbatli bo’lish. Boshqa tariqatdagi shayx va murshidlarga ham muhabbatli bo’lish va bir tariqat bilan boshqa tariqat orasini ajratmaslik, ularning tariqatlariga nisbatan xusumatda bo’lmaslik, Kitob va sunnatga asoslangan tariqatlarga ta’na qilmaslikdir.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, qodiriya tariqati o’zining mo’tadilligi, Kitob va sunnatni mahkam tutgani, insonlarni yaxshilik qilishga buyurib, yomonlik qilishdan qaytargani, inson hayotda halol yashab o’tishi va solih amallar qilishga chaqirgani bu tariqatning ulamolari oddiy xalq orasida keng yoyilishiga sabab bo’ldi. Bu narsa tariqat asoschisi Abdulqodir Jiyloniyi ilm ahli qanchalik darajada hurmat qilgani, oddiy xalq ommasi esa, u kishining o’gitlaridan ibrat olib, hayot kechirganida ko’rish mumkin.

